

Кун мавзуси

## ФВВ ФАОЛИЯТИГА БАҲО БЕРИЛДИ

Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг навбатдаги мажлисида Фавқулдда вазиятлар вазири А.Қўлдошевнинг “Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими фаолиятининг самарадорлигини таъминлаш борасида амалга оширилган ишлар тўғрисида”ги ахбороти эшитилди.

Қайд этилганидек, 2022 йилда қабул қилинган “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонунда фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизимининг ҳуқуқий асослари мустаҳкамлаб қўйилган.

Республиканинг катта қисми сезиларли даражада иқлим ўзгариши таъсири доирасида бўлиб, бунинг оқибатида рўй бераётган фавқулдда вазиятлар ижтимоий-иқтисодий ривожланишга, одамларнинг турмуш тарзи ва соғлиғига, шунингдек, иқтисодий объектларнинг барқарор фаолият олиб боришига ўз салбий таъсирини кўрсатмоқда.

Шу билан бирга, республикамизнинг тоғ ва тоғолди ҳудудларида рўй бераётган сел оқимлари, тошқинлар, кўчки ҳодисалари билан боғлиқ фавқулдда вазиятларнинг сони ҳамда кўлами аҳолини ва ҳудудларни бундай хавфлардан муҳофаза қилиш чораларини кучайтиришни, шунингдек, давлат органлари ва маҳаллий ҳокимликларнинг бу борадаги ҳамкорлигини янада такомиллаштиришни тақозо этади.

Шундан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорлари ва фармонларида ёнгинлар профилактикаси самарадорлигини ошириш ва ёнгин хавфсизлиги соҳасида давлат назоратини такомиллаштириш, хавфли гидрометеорологик ҳодисалар ҳамда геологик жараёнлар билан боғлиқ фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш, сейсмик хавфсизликни таъминлашнинг янги усуллари, республикада кучли zilzilалар ҳақида эрта огоҳлантириш миллий тизимини жорий этиш бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилди.



Ҳукуматнинг тегишли қарори асосида табиий офатлар хавфини камайтириш ва иқлим ўзгаришига чидамликни ошириш бўйича чора-тадбирлар самарадорлигини ошириш бўйича устувор йўналишлар ва комплекс тадбирларни ўз ичига олган 2023 – 2030 йилларда табиий офатлар хавфини камайтириш ва иқлим ўзгаришига чидамликни ошириш бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий ҳаракатлар режаси қабул қилинди.

Парламент эшитувида таъкидланганидек, табиий офатларнинг олдини олиш, прогнозлаш, мониторинг қилиш, табиий офатлардан аҳолини ва ҳудудларни муҳофаза қилиш, етказилган зарарлар миқдорини камайтириш, хавфли ҳудудлардаги фуқаролар, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳа объектларининг хавфсизлигини таъминлаш бўйича тизимли ишлар амалга оширилиб, бир қатор ижобий натижаларга эришиб келинмоқда.

Биргина муҳандислик тадбирларининг самарали амалга оширилиши билан ўтган йилнинг ўзида 19 та хўжалик объекти ва 116 нафар фуқаронинг ҳаётига хавф бартараф этилди.

Эшитувда депутатлар томонидан таҳлиллар соҳада айрим

камчиликлар ва ҳал этилиши лозим бўлган масалалар мавжудлигини кўрсатаётганлиги қайд этилди. Хусусан, айрим вазирлик ва идоралар ҳамда маҳаллий ҳокимликлар, фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш ва ҳаракат қилиш давлат тизими томонидан табиий ва техноген хусусиятли фавқулдда вазиятларни бартараф этиш учун молиявий ва моддий ресурслар захиралари тўлиқ яратилмаган.

Аҳолини фавқулдда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлашга доир тадбирлар, шунингдек, фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш соҳасидаги билімларни тарғиб этиш ишлари етарлича самара бермаяпти.

Савол-жавоб ва муҳокамаларга бой бўлган парламент эшитувида депутатлар томонидан фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими фаолиятини такомиллаштириш, тизимга замонавий бошқариш тамойилларини жорий қилишга қаратилган бир қатор таклиф ва тавсиялар берилди.

Кун тартибидagi масала юзасидан самарали парламент назоратини таъминлашга келишиб олинди.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади. муҳим омил ҳисобланади.

Фавқулдда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров бошчилигидаги делегация тажриба алмашиш мақсадида Польша Республикаси, Россия Федерациясининг Москва ва Уфа шаҳарлари-га ташриф буюрди.

## ТАЖРИБА АЛМАШУВ

Ташриф дастурига кўра, фавқулдда вазиятлар идоралари раҳбариятлари билан учрашувлар ўтказилиб, фавқулдда вазиятлар мониторинги, прогнозлаш, олдини олиш ва оқибатларини бартараф этиш соҳасида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш, автоматлаштирилган огоҳлантириш тизимларини яратиш ва аҳолини фавқулдда вазиятлар тўғрисида хабардор қилиш соҳасида ўзаро тажрибалар алмашилди. Томонлар ҳамкорлигининг бугунги ҳолатини муҳокама қилдилар ва уни ўзаро манфаатли йўналишларда фаоллаштириш йўлларини белгилаб олдилар.

Йиғилишлар давомида томонларнинг табиий офатларнинг олдини олиш, зарарни камайтириш ҳамда оқибатларини бартараф этиш, саноат хавфсизлигини назорат қилиш ва кенг қамровли авария-қутқарув операциялари каби соҳалардаги ҳамкорлиги кўриб чиқилди. Шунингдек, амалий ҳамкорликни чуқурлаштириш бўйича янги таклифлар илгари сурилди. Қолаверса, Ўзбекистонда кейинги йилларда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритиш, хорижий давлатлар билан дўстона ҳамда ўзаро манфаатли муносабатларни ривожлантириш борасида муҳим натижаларга эришилаётгани қайд этиб ўтилди. Замонавий талаблар даражасидаги мутахассислар тайёрлашда хорижий илғор тажрибаларини ўрганиш ва бу борада ҳамкорликни йўлга қўйиш масалалари ҳам эътироф этилди.

Полковник С.Зупаров ўз нутқида мамлакатимиз раҳбарияти томонидан аҳоли ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш борасида амалга оширилаётган комплекс чора-тадбирлар ҳақида тўхталиб ўтди. Шунингдек, тезкор ахборот алмашишни йўлга қўйиш, фавқулдда вазиятларнинг олдини олишда минтақанинг барча мамлакатлари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш, чегара дарёларида қирғоқларни мустаҳкамлаш ишларини олиб бориш, кўшма машғулотлар ўтказиш, эрта огоҳлантириш тизимини кенг жорий этиш борасида ҳам муҳим фикрлар баён этилди. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, минтақалараро сиёсий ва иқтисодий ҳамкорлигининг самарали ташкил этилиши мамлакатда кенг кўламли ислохотлар ва демократик ўзгаришларни муваффақиятли рўёбга чиқариш, халқаро майдонда мамлакат нуфузини мустаҳкамлаш ва аҳоли фаровонлигининг ошишини таъминлашда энг

## МАВСУМГА СТАРТ БЕРИЛДИ

Навоий гарнизонида жойлашган ҳарбий қисмда қўмондонлик, Ёшлар ишлари агентлиги, Ёшлар иттифоқи вилоят кенгаши ва Навоий ҳарбий прокуратураси ҳамкорлигида “Жасорат мактаби” ҳарбий-ватанпарварлик ўқув йиғинининг навбатдаги мавсумига старт берилди.

Вилоятнинг учта шаҳар ва тўққизта туманидан келган ёшлар дастлаб ҳарбий оркестр садолари остида байрамона кутиб олинди.

Сўнгра тиббий кўриқдан ўтказилиб, ёшлар йиғинининг тантанали очилиш маросимида саф тортди.

Сўз олганлар ёшларнинг таълим олиб, ҳунар эгаллашлари учун давлатимиз томонидан кенг имконият эшикларини очилганини алоҳида таъкидлашди.

Жараён ватанпарварлик руҳидаги саҳна кўринишлари, ҳарбий хизматчиларнинг кўргазмалари чиқишлари ва куй-қўшиқларга уланиб кетди.

**Ж.ЎРИНОВ,**  
Навоий ҳарбий прокурори,  
адлия полковниги.

## ДАВРА СУҲБАТИ

Чиноз тумани ФВ бўлими ҳарбий хизматчи ва хизматчилари билан Тошкент вилояти ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими раҳбарияти томонидан “Коррупция ёмон иллат, унга қарши курашишда барчамиз бирдек масъулмиз” мавзусида давра суҳбати ўтказилди. Тадбирга Чиноз тумани прокурори ўринбосари, ИИБ бошлигининг ўринбосари, ИИБ ЙҲХБ катта инспектори ҳамда “Қози” жомеъ масжиди имом хатиби таклиф этилди.

Сўзга чиқанлар томонидан юртимизда бугунги кунда кечаётган ислохотлар, ўзгаришлар ҳамда яратиб берилаётган кенг имкониятлар хусусида сўз юритилди. Бугунги кунда содир этилаётган коррупцияга оид жиноятлар хусусида шахсий таркибга муҳим бўлган маълумотлар етказилиб, арзимаган пул маблағларини олганлик учун узоқ муддатга оила аъзолари ҳамда яқинларидан ажралган ҳолда, ҳаёт кечирини сабаб бўлаётганликлари айтиб ўтилди.

**Т. ЭРАЛИЕВ,**  
Чиноз тумани ФВ бўлими бошлиғи,  
майор.  
**А.ҚУШАҚОВ,**  
бўлим бошлиғи ўринбосари,  
капитан.

## КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ

Қораўзак тумани ФВ бўлимида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича ҳарбий хизматчилар ва хизматчилар билан амалий семинар ўтказилди. Семинар давомида иштирокчилар коррупция иллатига қарши курашиш ва ҳамда бу борада Ўзбекистон Республикасидаги мавжуд амалдаги қонун ҳужжатлари билан таништирилди.

Қайд этилдики, коррупция ҳар қандай давлат ва жамиятнинг сиёсий-иқтисодий ривожланишига жиддий путур етказди, давлатнинг консти-

туциявий асосларини ва қонун устуворлигини заифлаштиради, пировардида инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг поймол бўлишига олиб келади. Коррупция фуқаронинг давлат вакили билан маъмурий муносабатлари маъно-моҳиятини ўзгартиради ва жамият учун ҳам, давлат учун ҳам салбий оқибатларга сабаб бўлади.

**Д.ДАУЛЕТБАЕВ,**  
Қораўзак тумани ФВ бўлими бошлиғи, майор.  
**А.ДЖАЛЕЛОВ,**  
бўлим П ва НБ катта инспектори, катта лейтенант.

Андижон ҳарбий прокуратураси, ҳарбий қисм қўмондонлиги, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи вилоят кенгаши, Миллий гвардия ва Қўриқлаш бошқармалари ҳамкорлигида ватанпарварлик сайиллари давом эттирилмоқда.

## ВАТАНПАРВАРЛИК ТАДБИРИ

Навбатдагиси “Ёшлар ойлиги” доирасида “Янги Ўзбекистон ёшлари, бирлашайлик!” шиори остида Бўстон туманидаги “Кўёшча” болалар соғломлаштириш оромгоҳида ташкил этилди.

Ҳарбий хизматчиларнинг кўргазмалари чиқишлари,

турли спорт беллашувлари ва куй-қўшиқлар тадбирга ўзгача завқ бағишлади.

**И. ХАЛИЛОВ,**  
Андижон ҳарбий прокурорининг ўринбосари, адлия подполковниги.

## МАРАФОН

Пойтахтимиздаги “Янги Ўзбекистон” боғида ўтган BYD “Янги Нафас” оммавий югуриш марафонида Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ва ФВБ Академияси жамоалари ҳам фаол қатнашиб, академия 4-батальон курсанти Ақобир Киронбаев фахрли иккинчи ўринни қўлга киритди.

**ФВБ Академияси ахборот хизмати.**

## ИЛЛАТГА ҚАРШИ

Андижон вилояти ФВБ ва унинг таркибий тузилмалари ходимлари иштирокида коррупцияга қарши курашиш бўйича профилактик тадбир ўтказилди.



Тадбир давомида коррупция ҳолатларига йўл қўймастик, йўл-транспорт ҳодисалари ва жиноятчиликнинг олдини олиш борасида муҳим маълумотлар тақдим этилди. Таъкидланганидек, сўнги йилларда мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш бўйича самарали ишлар амалга оширилмоқда. Чунки жиноятлар орасида коррупция ўта хавфли ҳисобланиб, инсоннинг ҳаётига, соғлиғига, мулкка, давлат барқарорлигига, шунингдек, бир қанча муҳим объектларга зарар етказиши билан жамиятимизга катта хавф туғдиради.

Қайд этилганидек, жиноят ҳуқуқида коррупция ибораси давлат идораларида ишлайдиган мансабдор шахсларнинг ёки давлат хизматчиларининг уюшган гуруҳ, шунингдек, бошқа жиноятчи шахслар билан ўзаро тил бириктириб, жиноят содир этиши ёки уларни жиноят содир этиш учун шароит яратиб беришини англатади.

**А.МЎМИНОВ,** Андижон вилояти ФВБ Шахсий хавфсизлик бўлими бошлиғи, подполковник.  
**Дипхушбек ПОЗИЛОВ,** Маънавий-маърифий ва тарбиявий ишлар бўлими бошлиғи, капитан.

## УЧ АВЛОД УЧРАШУВИ

ФВБ Академиясида “Уч авлод учрашуви” бўлиб ўтди. Учрашувда Тошкент шаҳар Бирлашган Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги полковник Мирзохид Мирзаитов ва ФВБ Академияси бошлиғи генерал-майор Равшан Ҳайдаров, шунингдек, биринчи батальон курсантлари қатнашдилар. Самимий кечган мулоқот курсантларда катта таассуротлар қолдирди.

**ФВБ Академияси ахборот хизмати.**

## ФИРИБГАР ЖАЗОЛАНДИ

Пойтахтимизнинг Олмазор туманида яшовчи А.А. ҳам фирибгарлик жиноятини содир этганлик учун судланди.

Судланувчи А.А. ўзганинг мулкни аздаш ва ишончли суиистеъмоқ қилиш йўли билан қўлга киритиш мақсадида 2024 йил 19 январь куни Яккасарой тумани, КХАЙ кўчасида жойлашган ёқилғи қуйиш шохобчаси ёнида жабрланувчи З.Г.га ўзининг турмуш ўртоғининг номига кредит шартномасига асосан олинган оқ рангли “Spark” русумли автомашинани сотишини ваъда қилган. З.Г.дан қиймати 31.050.475 сўмга тенг бўлган 2.500 АҚШ доллари миқдоридаги пулларини фирибгарлик йўли билан қўлга киритиб, автомашинани унинг номига расмийлаштириб бермасдан алдаган. Берган ваъдасини бажармасдан пулларни ўзининг эҳтиёжлари учун сарфлаб юборган.

Судланувчи А.А. суд мажлисида айбига тўлиқ иқrorлик билдирди. Пулга муҳтож бўлганлиги сабабли 2024 йил январь ойи ўрталарида турмуш ўртоғининг номига кредитга олинган “Spark” русумли автомобилни сотиши тўғрисида танишларига айтганлиги ҳақида кўрсатма берди. Шунингдек, З.Г. унга телефон қилиб, автомашинасини сўраганида, 5.300 АҚШ доллари эвазига сотмоқчи эканлигини айтган. Шундан сўнг улар Яккасарой туманида жойлашган бензин қуйиш шохобчасида кўришиб, автомашинасини сотишини, фақатгина битта-иккита иши борлигини, ишларини битириб, автомашинани кейин унинг номига расмийлаштириб беришини маълум қилган. А.А. харидордан ўша ернинг ўзида олдиндан тўлов тариқасида 300 АҚШ доллари олган. Орадан бир-икки кун ўтгач, А.А. унга яна пул кераклигини айтиб, 2.200 АҚШ долларини олган. Пулларни эса эҳтиёжлари учун ишлатиб юборган. Қолаверса, З.Г.дан яна 2.500 АҚШ доллари миқдорида пулларни алдаб олган.

Жабрланувчи З.Г. суд мажлисида 2024 йил январь ойи ўрталарида автомашина сотиб олмоқчи бўлиб танишларига арзон автомашина топиб беришини илтимос қилганлигини, танишлари унга арзон нархга, яъни 5.300 АҚШ доллари “Spark” русумли автомашина сотилаётганлигини айтишганлигини билдирди. Кейинчалик шахси маълум бўлган А.А.га кўнғироқ қилиб гаплашганида, турмуш ўртоғининг номида бўлган “Spark” русумли автомашинани 5.300 АҚШ доллари эвазига сотмоқчи эканлигини маълум қилган. Улар бензин қуйиш шохобчаси ёнида кўришишган. А.А. ундан заклад тариқасида 300 АҚШ доллари беришини сўраган ва А.А.га ўша ернинг ўзида 300 АҚШ долларини берган. Эртаси куни А.А. унга кўнғироқ қилиб, бувиси касал бўлиб қолганлигини айтиб, яна пул сўраганида укаси орқали яна 700 АҚШ доллари берган. Қисқаси, А.А. З.Г.дан бўлиб-бўлиб, жами 2.500 АҚШ долларини олган. З.Г. ундан автомашинани қачон номига ўтказиб беришини сўраганида, турли хил баҳоналар билан қочиб юрган. А.А. уни алдаб кетганлигини тушуниб, пулларини ундириб олиш мақсадида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ариза билан мурожаат қилганлигини, унга етказилган моддий зарарнинг 300 АҚШ доллари қисми қопланганлигини, қолган 2.200 АҚШ доллари қисми ҳозирга қадар қопланмаганлигини, судланувчи А.А. дан зарарни ундиришни ва унга қонуний чора кўришни сўраб, кўрсатувлар берди.

Суд судланувчи А.А.ни Ўзбекистон Республикаси ЖК 168-моддасининг 1-қисмида назарда тутилган жиноятни содир этишда айбдор, деб топди.

Унга 2 йил муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинланди.

**А.ҲАКИМОВ,**  
жиноят ишлари бўйича Яккасарой туман судининг судьяси.

Qarshi shahridagi Madaniyat markazi binosida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qashqadaryo viloyat Kengashi hamda viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi hamkorligida "Quvnoqlar va zukolar voha ligasi" ko'rik-tanloving Qashqadaryo viloyati bosqichi o'tkazildi.

## KO'RIK-TANLOV



Tadbirida viloyat kuch tuzilmalari o'rtasidan saralanib chiqqan Qashqadaryo viloyati FVB "Temurbeklar" jamoasi ham faol ishtirok etdi.

Murosasiz va qiziqarli kechgan ko'rik-tanlovda viloyat FVBning "Temurbeklar" jamoasi 2-o'rinni qo'lga kiritib, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

**A. QUDRATOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, katta leytenant.

## KO'PKURASH

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida malaka oshirish tayyorgarligidan o'tayotgan FVV harbiy xizmatchi va xizmatchilari o'rtasida sog'lom muhitni targ'ib qilish maqsadida "Ko'p kurash" sport musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqada ishtirokchilar oltita shart bo'yicha kuch sinashdilar. Musobaqa yakuni bo'yicha to'sinda tortinish shartida 1-guruh tinglovchisi xizmatchi A.Yuldashov, 100 metr masofaga yugurish shartida 5-guruh tinglovchisi xizmatchi R.Qalliqorazov, 1000 metr masofaga yugurish shartida 4-guruh tinglovchisi oddiy askar P.Suyarov, 24 kg. toshni ko'tarish shartida 7-guruh tinglovchisi kichik serjant H.Rahimberganov, Armrestling kuch sinashish shartida 6-guruh tinglovchisi xizmatchi Q.Jumandurdiyev hamda arqon tortish shartida 8-guruh jamoasi birinchi o'rinni egallashdilar. Musobaqa natijalari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan tinglovchilarga markaz boshlig'i tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

**B. BEKMAMEDOV,**  
FVV BTvaMOM bo'lim boshlig'i,  
podpolkovnik.  
**Sh. MAMATQULOV,**  
o'qituvchi, mayor.

## O'ZBEKISTON KUBOGI SOVRINDORLARI

Toshkent shahrida sportning armrestling turi bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasi o'tkazildi.

Mazkur musobaqada 15 ta vazn toifasida 400 dan ortiq sportchilar ishtirok etdilar. Shu jumladan, FVV Akademiyasi harbiy va jismoniy tayyorgarlik kafedrasida dotsenti, kapitan Rustam Choriyev murabbiyligida 10 nafarga yaqin kursantlar ham musobaqada faol ishtirok etib, g'oliblar qatoridan joy egalladilar.

Musobaqa yakuniy natijalariga ko'ra, FVV Akademiyasining 3-batalon kursanti Islom Ibodov 70 kg. vazn toifasida chap qo'l bilan birinchi o'rinni, 3-batalon kursanti Doston Hamraqulov 70 kg. vazn toifasida o'ng qo'l bilan hamda 2-batalon kursanti

Jamshid Kenjayev 60 kg. vazn toifasida o'ng qo'l bilan ikkinchi o'ringa munosib ko'rildilar.

Shuningdek, 2-batalon kursanti Olamgir Amonov 90 kg. vazn toifasida chap qo'l bilan va 2-batalon kursanti Abdulaziz Abdumominov 60 kg. vazn toifasida chap qo'l bilan uchinchi o'rinni egalladilar.

Umumiy natijalarga ko'ra, Akademiya jamoasi 1 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza medallari sohibi bo'ldi. Ushbu musobaqada birinchi va ikkinchi o'rinni egallagan sovrindorlar Osiyo kubogi musobaqasiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

FVV Akademiyasi axborot xizmati.

## MUHIM TADBILAR

Chinoz tumani FV bo'limi, tuman IIB, MG hamda mahalla fuqarolar yig'inlari mas'ullari bilan hamkorlikda kanal, soy va daryolarning cho'milish taqiqlangan joylarida fuqarolar cho'milishining oldini olish hamda xavfsizligini ta'minlash maqsadida profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Bu galgi profilaktik tadbirlar hududdan oqib o'tuvchi "Chirchiq" va "Sirdaryo" daryolarining qirg'oqlarida amalga oshirildi. Profilaktik tadbirlar davomida voyaga yetmagan yosh bolalarning belgilanmagan joylarda cho'milish holatlari aniqlanib, bolalarga nazoratsiz joylarda cho'milish hayoti va sog'lig'iga xavfli ekanligi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Tuman hududida profilaktik tadbirlar kunu tun amalga oshirilib, tegishli xizmatlar bilan nazorat postlari tashkil etildi.

**A. QO'SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi  
boshlig'i o'rinbosari, kapitan.  
**R. ABDULLAYEV,**  
bo'lim bo'linma boshlig'i, katta leytenant.

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi "NKMK jamg'armasi"ga qarashli "Sarmish" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida ikkinchi mavsumda 700 nafardan ortiq bolajonlar miriqib dam olishayapti.

## YOZ - O'TMOQDA SOZ

Oromgoh tog'li hududda joylashgan bo'lib, maydoni 18 gektarni tashkil etadi. Oromgohda 1 ta ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasi tashkil etilgan bo'lib, undagi jamoa a'zolari soni 6 nafarni tashkil etadi. Hududda 11 ta yong'in o'chirish qalqonlari o'rnatilgan bo'lib, ular birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlangan, 1 ta bolalar cho'milish hovuzi, mavjud binolarda ichki yong'in o'chirish kranlari, xonalarda ko'rgazmali yong'in xavfsizligi burchaklari tashkil etilgan bo'lsa, binolarning kirish va chiqish joylarida favqulodda qutqaruv evakuatsiya chizmalari ko'rsatilgan va hududda 5 ta yong'in-o'chirish gadrantlari mavjud.

Albatta, boshqa soha vakillari qatorida FVV Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ va "Navoiyuran" Davlat korxonasi obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi xodimlari tomonidan oromgohning yetkachi va tarbiyachilari hamda bolajonlar ishtirokida yong'in va favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida, dastlab oromgohda har bir otryad o'z nomini aytib ma'lumot berdi. Tadbir viktorina tarzida savol-javoblar bilan boshladi, unda yong'in, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda, birinchi yordam ko'rsatish va boshqa favqulodda holatlar sodir bo'lganda bolajonlar o'zlarining bilim va ko'nikmalarini nazariy tarzda sinab ko'rishdi. Bolajonlar ishtirokida "Yosh qutqaruvchilar" musobaqasi tashkil etildi. Unda bolajonlar guruhlariga bo'linib, belgilangan shartlarni mohirlik bilan bajarishdi.

**M. HAYITOV,**  
NKMK markaz kichik inspektori,  
katta serjant.



## OYLIK DOIRASIDA

Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi tashkil etildi.

Unda yosh harbiy xizmatchilar hamda Qarshi shahridagi 2-sektorga birlashtirilgan yoshlar ishtirok etdilar.

Dastlab rahbar va yoshlar o'rtasida erkin muloqot tashkil etilib, unda viloyat FVB rahbari polkovnik Farhod Mirzayev tomonidan vatanparvarlik avlodlar av-

lodga meros bo'lib o'tayotgan qadriyat ekanligi, har bir insonning o'z ona zaminida yashashi, uning manfaatlari yo'lida fidoiy bo'lishi yuksak oliy ne'mat ekanligini, shu qatori, Batan himoyachisi, harbiy bo'lishning sharafiga va mas'uliyati haqida ma'lumotlar berildi.

**O. HAKIMOV,**  
Qashqadaryo viloyati  
FVB boshlig'i o'rinbosari,  
podpolkovnik.

## HOKIM KUBOGI

Chinoz tumanida mini-futbol bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi idora hamda tashkilotlar jamoalari o'rtasida "Hokim kubogi" musobaqasi bo'lib o'tdi. Musobaqa davomida jamoalar 2 ta guruhga bo'lingan holda o'zaro bellashdilar. Yakunda "A" guruhda birinchi o'rinni egallagan tuman FV bo'limi hamda "B" guruhda birinchi o'rinni olgan tuman ichki ishlar bo'limi jamoalari final yo'llanmasiga ega bo'ldilar.

Final o'yini murosasiz kurashlar ostida bo'lib, FV bo'limi jamoasi IIB jamoasini mag'lub qilib, "Hokim kubogi"-

ga ega bo'lishdi.

Yakunda 1-o'rin tuman FV bo'limi, 2-o'rin tuman ichki ishlar bo'limi jamoasiga hamda 3-o'rin tuman hokimligi jamoasiga nasib qildi.

G'olib jamoalarga tuman hokimining esdalik sovg'alari topshirildi.

**A. QO'SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi  
boshlig'i o'rinbosari, kapitan.  
**D. SODIQJONOV,**  
bo'lim P va NB kichik  
inspektori, oddiy askar.

## BETALOFAT O'TKAZAYLIK!

Samarqand viloyati Narpay tumani FV bo'limi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tomonidan don qabul qilish va qayta ishlash korxonasida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulot g'oyasiga ko'ra, korxonada shartli yong'in yuzaga kelgan bo'lib, yong'inni zudlik bilan bartaraf etish, bino ichida qolgan fuqarolarni xavfsiz joyga evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari amalga oshirildi.

O'quv mashg'uloti yakunida yo'l

qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qilindi.

Bundan tashqari, FV bo'limi xodimlari jadallik bilan o'rim-yig'im ishlari olib borilayotgan fermer xo'jaliklarida bo'lib, g'alla maydonlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, kombaynlarning birlamchi yong'in-o'chirish vositalari bilan ta'minlanganligi va otryadlariga birlashtirilgan xodimlar xizmat joyida ekanligini o'rgandilar.

**F. TURDINIYAZOV,**  
Narpay tumani FV bo'limi  
boshlig'i, mayor.

Toshkent viloyati FVB "Yangi-Angren IES" AJ obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi 44-yong'in-qutqaruv qismi qutqaruvchisi, yong'in o'chiruvchisi oddiy askar Javohirbek Saparov yurtimizning bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lib, ular ishlarining davomchisi bo'layotgan yoshlar sirasiga kiradi. Harbiy sohada xizmat qilish orzusida bo'lgan qahramonimiz yoshligidan harbiy libos kiyishni va shu sohada xizmat faoliyatini olib borishni orzu qildi. Bu orzu uni yurti, ota-onasi, tengdoshlari oldida mas'uliyatli, yuksak ma'naviyatli komil shaxs bo'lishga undadi. Shu bois, o'z ustida har doim izlanishda bo'ldi, sport bilan shug'ullanishni odat qildi. 2021–2022-yillarda Toshkent viloyati Angren shahar bolalar va o'smirlar sport maktabida murabbiy bo'lib ishladi.

## MARD O'G'OLON



2002-yilda Toshkent viloyati FVB Angren shahar FV bo'limi 5-kasbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismida avtomobil texnikalaridan foydalanish bo'yicha texnik lavozimiga ishga qabul qilingan. 2023-yildan esa shu qismning 6-kasbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismida faoliyatini davom ettirgan. Chirchiq davlat pedagogika universitetining sirtqi bo'limida tahsil olib, xizmat faoliyati davomida ustozlaridan bilmaganini o'rganib, jangovar shaylik, Vatanga sadoqat, o'z burchiga sidqidildan yondashish, insonlarning hayotini saqlab qolish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini shakllantirgan.

J.Saparov 2021-yilda sportning

kurash turi bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida hamda 2022-yilda tashkil etilgan Mudofaa vaziri kubogida bronza medalni qo'lga kiritdi. 2023-yilda esa sportning kurash turi bo'yicha bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida oltin medal sohibiga aylandi. Qolaversa, o'sha yilda o'tkazilgan FVV kubogida ham oltin medal egasiga aylandi. Shuningdek, 2023-yilda Qozog'iston Respublikasida Turkiy davlatlar o'rtasida o'tkazilgan Universiada o'yinlarida va 2023-yilning dekabr oyida turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar harbiy xizmatchilari va xodimlari o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston



championatida oltin medallarni qo'lga kiritdi.

O'z kasbiga bo'lgan mehri, shijoati, qiziqishi juda baland. Nafaqat kasbiy, bilimlarini balki jismoniy tayyorgarligi ham juda yuqori hisoblanadi. Sport asbob-anjomlariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z bilimlarini shaxsiy tarkibga doimo o'rgatib, tushuntirib boradi. Yoshlarga o'rnak bo'la oladigan, ishdan o'zini olib qochmaydigan, tadbirlarda o'zini ko'rsatadigan, sportda ham anchagina tajribaga ega bo'lgan Javohirbek Saparov joriy yilda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bunday yutuqdan u juda mamnun bo'ldi. Ota-onasining esa quvonchi cheksiz. Do'stlari, hamkasblari unga o'zgacha havas bilan qarashadi.

Lavhamiz qahramoniga bundan keyin ham ona-yurtimiz tinchligi, xalqimiz xotirjamligini ta'minlashda bugungidek shijoat, matonat va mustahkam salomatlik tilab qolamiz.

**R. ROZABOYEVA,**  
O'zJOKU harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi.

## KROSS-FIT

**FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tinglovchilar o'rtasida maxsus kuch ishlatish mashqlari estafetasi musobaqasi tashkil etildi.**

Musobaqani markaz boshlig'ining birinchi o'rinbosari mayor A.Ochilov kirish so'zi bilan ochib, sohada olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda yosh harbiy xizmatchilarga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar, tizim uchun ajratilayotgan yangi va zamonaviy turdagi texnikalar, ularning afzallik va qulaylik tomonlari haqida qisqacha to'xtalib o'tdi va musobaqa ishtirokchilariga omad tiladi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, 10-guruh tinglovchilari oddiy askar Z.Maxsumov, M.Usmonov, F.Rajimetov va S.Idievlardan tashkil topgan "Qutqaruvchilar" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

**Sh.MAMATQULOV,**  
FVV BT va MOM  
o'qituvchisi, mayor.

## EHTIYOT BO'LAYLIK!

Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz gemoglobin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma — karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga, og'ir holatlarda esa — anoksiyaga olib kelishi va shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin.

**Z.SALAYEVA,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlis Senati  
YXTTEB katta inspektori  
podpolkovnik.

## YANGILIK

Namangan viloyati FVB tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida, Yangi Namangan tumani Do'stlik kichik halqa yo'li chorrahasida axborot ekrani o'rnatildi.

**I. MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot  
xizmati yetakchi mutaxassisi.

## TALABLARGA AMAL QILAYLIK!

Davlatobod tumani hududidagi qurilish-montaj ishlari olib borilayotgan bir qator ijtimoiy soha obyektlari hamda ko'p qavatli aholi yashash uylarida yong'in xavfsizligi qoida-talablariga amal qilinishi yuzasidan FVB bo'limi inspektorlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazilmoqda. Tekshiruv davomida bir qator qoida buzish holatlari aniqlanib, mas'ul mutasaddi rahbarlarga ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning tegishli moddalariga asosan o'rnatilgan tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Tekshiruvdagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 273 ta yozma tavsiyalar topshirildi. Bundan tashqari, qurilish obyektlarida 17 bor uchrashuv o'tkazilib, unda 110 nafar ishchi-xodimlar quruvchilarga texnika va yong'in xavfsizligi qoida-talablariga amal qilgan holda ishlashi yuzasidan uchrashuv, suhbat va yo'riqnomalar tashkil qilindi.

**A.MUSAYEV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi DYON  
inspektori, katta serjant.

## LOQAYD BO'LMAYLIK!

Kishilik jamiyatida ilk bosqichdayoq olov qanchalar muhim o'rin tutganligi tarixdan ma'lum. Shu sababli yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan aholi turar-joylarining yong'inga qarshi holati muntazam tekshirib turiladi, ommaviy axborot vositalari orqali yong'inlarning oldini olishga oid maqsadiga qaratilgan chiqishlar qilinadi, profilaktik tadbirlar o'tkazilib boriladi.

Fuqarolardagi loqaydlik va befarqliklar tufayli yashash joylarida hamon yong'inlar sodir bo'lib turibdi. Fuqarolar yong'in xavfsizligi xizmati xodimlariga yaqindan yordam berishlari lozimligini eslatib o'tmoqchimiz. Chunki o'z uyi va o'z galar hayoti uchun javobgarlik har bir kishining vijdon ishi bo'lishi kerak. Yong'in xavfsizligini ta'minlashda faollik ko'rsatish burch ekanligini hech kim unutmasligi zarur.

**D.ANVAROV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlis Senati YXTTEB  
kichik inspektori, katta serjant.



## TUSHUNTIRISH

Urganch shahar FV bo'limi tomonidan shahar hududidagi 14 ta MFYlarda, 35 ta ijtimoiy soha obyektlarida, 7 ta odamlar ommaviy toplanadigan maskanlarda zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish mavzusida profilaktika tushuntirish ishlari olib borildi.

Viloyat musiqali drama teatri, "Yoshlik" sport kom-

pleksilarida tegishli xizmatlarni jalb qilgan holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga qaratilgan maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

**E. ERNAZAROV,**  
Urganch shahar FV bo'limi  
boshlig'i o'rinbosari.

## MASHG'ULOT

Dehqonobod tumani hududidagi davlat o'rmon xo'jaligida yong'inlarning oldini olish va yong'in ro'y bergan vaqtda tegishli tashkilotlarning birgalikdagi harakatini muvofiqlashtirish yuzasidan amaliy-o'quv mashg'uloti bo'lib o'tdi. Koson tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan ham g'alla maydonlarida yong'inlarning oldini olish borasida amaliy chora-tadbirlar bajarib kelinmoqda.

Sh.TOG'AEV,  
Dehqonobod tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari.  
Laziz NORQULOV,  
Qashqadaryo viloyati FVB YQQ boshlig'i.



## TARG'IBOT

Koson tumani FV bo'limi tashabbusi bilan tumanida yangidan barpo etilayotgan ko'p qavatli uylar va boshqa bino-inshootlarda quruvchi hamda mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan targ'ibot tadbiri har tomonlama samarali bo'ldi.

Unda soha mutaxassislari yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari bo'yicha tavsiyalar berishdi.

Jarayonda mutaxassislar tomonidan qurilish inshootlarida olib borilayotgan qurilish-montaj ishlari bilan yaqindan tanishish jarayonida quruvchi va mas'ullarga xavfsizlik qoidalariga amal qilish, yong'in-ga qarshi tadbirlarni me'yoriy hujjatlar asosida tashkil qilish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

O'.XO'SHBOQOV,  
Koson tumani FV bo'limi  
bo'linma boshlig'i, leytenant.

## O'RGANILDI

Namangan viloyati FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov tomonidan Chortoq tumani FV bo'limi o'rganildi.

Xususan, bo'limning 24-yong'in-qutqaruv qismida, shaxsiy tarkib uchun yaratilgan sharoitlar, tashqi hududlar tozaligi, binolardan foydalanish talablariga alohida e'tibor qaratildi.

I.MELIBOYEV,  
Namangan viloyati FVB axborot  
xizmati yetakchi mutaxassisi.

## HAMKORLIK



Qashqadaryo viloyati "Epsilon development company" MCHJ XK xodimlarida jamoa va yakka tartibda himoya vositalaridan foydalanish, boshqaruvning barcha darajadagi rahbarlarini muhofaza qilish bo'yicha qutqarish ishlarini bajarish, kuchlar va vositalarni tayyorlash va ularni boshqarish ko'nikmalarini hosil qilish, bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib borilmoqda.

A.VASIYEV,  
Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M  
boshlig'i, mayor.  
I.MUQIMOV,  
markaz o'qituvchisi.

## SEMINAR

Yangiobod tumanida Jizzax viloyati FVB tomonidan viloyat prokuraturasi va Adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda seminar o'tkazildi.

Ma'ruzachilar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyati ahamiyati hamda bu borada joriy yilda amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Seminar davomida harbiy xizmatchi va xizmatchilarning kasb madaniyatiga rioya qilishi, ijro intizomini mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoada korrupsiyaga murosasizlik muhitini shakllantirish borasida fikr-mulohazalar bildirildi.

M.ATABEKOV,  
Jizzax viloyati FVB bo'lim bosh inspektori,  
podpolkovnik.

## TAKTIK O'QUV MASHQI

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB boshlig'ining yillik reja jadvaliga asosan To'rtko'l tumani hududidagi "Agro To'rtko'l Tekstil Cluster" MCHJda "Obyektda sodir bo'lgan yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarni hamkorlikdagi tashkilotlar bilan bartaraf qilish" mavzusida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi o'tkazildi.

Tadbir davomida obyekt rahbariyati va ishchilar hamda tuman maxsus xizmatlarining "yig'in" signaliga asosan yig'ilishi va saf ko'rigi bo'lib o'tdi. Hududda saqlanayotgan paxta xomashyolarida yong'in kelib chiqqan. Ushbu yong'in tuman FV bo'limi va hamkorlikdagi tashkilotlar tomonidan barataraf etish bo'yicha harakatlari ko'rib chiqildi. Omborxonadagi vayronalar ostida qolgan obyekt xodimlarini qutqarish, xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilishdagi harakatlari va ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini qutqaruv tuzilmasi va tibbiy yordam ko'rsatish xizmati xodimlari bilan hamkorlikdagi harakatlari ko'rildi.

S.QURBONBAYEV,  
To'rtko'l tumani FV bo'limi  
boshlig'i, o'rinbosari.

## XAVFSIZLIK

Yong'in xavfsizligini ta'minlash nafaqat korxonalar va aholi xonadonlari, balki qurilish maydonlarida ham birlamchi vazifalardan bo'lmog'i talab etiladi. Shuning uchun bino va inshootlar qurilishi, ta'mirlanishi, qayta jihozlanishi jarayonlarida yong'in xavfsizligi masalasi qurilishni tashkil etish va ishlarni bajarish loyihalarida o'z aksini topgan bo'lishi shart. Qurilishda ishlayotgan har bir shaxs yong'in xavfsizligi qoidalarini bilishi va ularga qat'iy rioya qilishi kerak. Qurilishlarda yong'in xavfsizligi ta'minlanishi, yong'in-ga qarshi chora-tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishi, yong'in-dan himoya qilishning tashkil etilishi uchun javobgarlik shaxsan qurilishni olib borayotgan bosh pudratchi yoki subpudratchi tashkilot rahbari yoxud uning vazifasini bajarayotgan shaxs zimmasiga yuklatiladi. Agar yuqorida sanab o'tilgan barcha qoidalarga to'liq rioya etilsa, qurilish, ta'mirlash, qayta ishlash jarayonlarida yong'inning oldi olingan bo'ladi.

A.AHMATJONOV,  
Kosonsoy tumani FV bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.  
Z. ABDURAHMONOV,  
Kosonsoy tumani FV bo'limi katta inspektori,  
kapitan.

## QOIDALAR TUSHUNTIRILDI

Davlatobod tumani FV bo'limi tomonidan sog'liqni saqlash muassasalarida favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish va ularning oqibatlarini kamaytirishga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.

Tadbirda xodimlarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash hamda sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilishga ruhiy tayyorgarlik, ularda ruhan chidamlilikni shakllantirish yoki qo'ygan vazifalarni bajarish, ishchi va xodimlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish malakasiga ega bo'lishiga erishish, jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish kabi vazifalar o'rgatildi.

Shu bilan bir qatorda, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, insonlar halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun amal qilish lozim bo'lgan xavfsizlik qoidalarini to'g'risida tushunchalar berildi.

S.RAHIMOV,  
Davlatobod tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, podpolkovnik.

## XIZMAT ITLARI DOIMO SHAY

"Qamchiq" navbatchilik maskaniga bir guruh fuqarolar tomonidan "Vodiy-Toshkent" yo'nalishining 249 km.da joylashgan "To'rabo'y" dam olish maskanida Sanjar ismli fuqaro yo'qolib qolganligi to'g'risida ma'lumot kelib tushdi. Voqea joyiga qidiruv-qutqaruv guruhi bilan birga "Edgar" laqabli xizmat iti yetib bordi. 5 nafar qutqaruvchi hamda xizmat iti bilan 1 km. radiusda joylashgan dam olish maskanlari hamda "Rezaksoy" ichida qidiruv ishlari olib borildi. Hamkorlikdagi tezkor qidiruv ishlari davomida fuqaro S.Jo'rayev Vodiy-Toshkent yo'nalishining 250 km.da joylashgan "Botirxon ota" choyxonasining hududidagi soy bo'yidan mast holatda topildi. "Qamchiq" MQYQB qutqaruv otryadi tasarrufidagi "Edgar" va "Rembo" laqabli xizmat itlari jangavor navbatchilikda qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish mobaynida o'zining sezgirliigi, berilgan topshiriqlarni aniq va o'z vaqtida samarali bajarishi bilan bir qatorda, jabrlanuvchilarni izlab topish jarayonlarida qutqaruvchilar bilan birgalikda xizmat olib bormoqda.

Xizmat itlariga yashash sharoiti, oziq-ovqat ta'minoti, veterinariya muolajalarining ko'rsatilishi bilan birga muntazam ravishda amaliy mashg'ulotlar tashkillashtiriladi.

U.TOJIYEV,  
"Qamchiq" MQYQB Qutqaruv otryadi  
komandiri, kichik serjant.

## AHOLI MUHOFAZASI

Insoniyat tarixi davomida odamlar tabiiy ofatlarga duch kelishgan. Qadimgi tabiiy ofatlar haqidagi rivoyatlar bizga ming yillar qaridan yetib kelgan. Ko'pgina tabiiy ofatlar mintaqaviy xususiyatga ega, chunki bir xil tabiat hodisasi bir hududda normal bo'lsa, boshqa hududda ekstremal bo'lishi mumkin. Misol uchun, sovuq va qor yog'ishi Rossiya va Skandinaviyada tez-tez uchraydi, lekin issiq mamlakatlarda ular tabiiy ofatlar bo'lib, ko'pincha katta zarar etkazadi.

Tabiiy ofatlarning zarari bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri zarar – bu odamlarning o'limi yoki jarohati, turli xil halokatlar bilan tugashi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri zarar darajasini aniqlash qiyin emas.

Favqulodda vaziyatlarning sabablari tabiiy, texnogen, antropogen, ekologik va ijtimoiy bo'lishi mumkin.

I.BEKMURZAYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati  
YXTTEB inspektori, oddiy askar.

## BELGILANMAGAN JOYLARDA CHO'MILMANG!!!

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda belgilanmagan yoki taqiqlangan joyda cho'milish oqibatida baxtsiz hodisalar ro'y berayotganligi haqida tarqalgan noxush xabarlar har birimizni ogohlikka chaqirishi shubhasiz. Hech birimiz suvda cho'kish men va mening yaqinlarim bilan sodir bo'lmaydi, deb beparvolikka berilmasligimiz kerak. Zotan, o'zimiz, oila a'zolarimiz, yaqin kishilarimizni doimo ogoh va ehtiyot bo'lishga chaqirishimiz kerak.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, cho'milishda turli baxtsiz hodisalar sodir bo'lishning oldini olish uchun, belgilanmagan joylarda cho'milmaslik, "Cho'milish taqiqlanadi" maxsus belgilariga qat'iy amal qilish, yosh bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik, faqatgina cho'milishga ruxsat etilgan maxsus suv havzalarida cho'milish talab etiladi.

**A.QO'CHQOROV,**  
Urganch shahar FV bo'limi P va NB  
inspektori, leytenant.

## HUSHYORLIKNI OSHIRAYLIK!

"G'alla-2024" mavsumi davomida g'alla nobudgarchiligiga yo'l qo'ymaslik, joylarda yong'in xavfsizligini to'liq ta'minlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralariga erishish maqsadida, o'rim-yig'im mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va yetishtirilgan hosilni qisqa muddatga nobudgarchiliksiz yig'ishtirib olish davrida jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati va yong'in xavfsizligini ta'minlash fermer xo'jaliklarining g'alla maydonlarida, o'rim-yig'imga jalb etiladigan avtomobil va traktorlarning texnik va yong'inga qarshi holati joylardagi ma'sul va javobgar mutaxassislar ishtirokida tekshirib chiqilishi talab etiladi.

**B. MURODOV,**  
"Navoiy IES" AJ OYXTTEB inspektori,  
leytenant.

## BOLALARNI QAROVSIZ QOLDIRMANG!

Yosh bolalarni uyda yolg'iz qoldirish va ularga e'tiborsiz bo'lish natijasida bir qator ko'ngilsizliklar yuzaga kelmoqda. Jumladan, is gazidan zaharlanish, alanganuvchi vositalarni o'ynash natijasida yong'inlar va turli darajadagi kuyish, elektr toki bilan bog'liq holatlar uchrayotganligi juda achinarlidir. Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sizlardan bolalar va yoshi ulug' keksalarni uyda yolg'iz qolishining oldini olishingizni so'rab qoladi.

**F.RAHIMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlis Senati YXTTEB  
kichik inspektori,  
3-darajali serjant.

## TAVSIYA

Ko'p qavatli uylarning xonadonlarida va yashash xonalarida yengil alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar, yonuvchi gazlarni saqlashga ruxsat etilmaydi.

Oshxonadagi va boshqa plitalarni gaz bilan ta'minlaydigan gaz ballonli qurilmalari binoga kirish

Dunyoning barcha davlatlarida bo'lgani kabi mamlakatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.

## BEPARVOLIKKA YO'L QO'YMAVLIK!



Hozirgi kunda hayotimizning barcha sohalarida polimer, plastmassa materiallar ko'plab ishlab chiqarilmoqda va ulardan tayyorlangan qurilish materiallari, tibbiyot jihozlari, idish-tovoqlar va boshqalar keng qo'llanilmoqda. Bunday materiallarning ishlatilishi yong'in xavfini orttirib yuborishi mumkin. Texnologik jarayonlarning buzilishi, odamlarning beparvoligi natijasida yong'inlar sodir bo'lmoqda.

Yong'inlarda asosan zarar

keltirib chiqaruvchi xavfli omillar ko'p miqdorda ajralib chiqadigan issiqlik va tutundir. Tutun atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbadir. Yong'inlarda yog'ochlar, matolar, benzin, kerosin, mazut, polimer, plastmassa kabi materiallar juda yaxshi yonadi.

**A.ABDURAHMANOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlis Senati YXTTEB  
kichik inspektori,  
katta serjant.

## PROFILAKTIKA

Ayni kunlarda Jizzax viloyati Zarbdor tumani FV bo'limi xodimlari va viloyat FVB qutqaruv otryadi suvda-qutqaruv guruhi qutqaruvchilari tomonidan tumandagi bolalar va sport maktabidagi yopiq suv havzasida cho'milish qonun-qoidalarini, cho'kayotganlarni qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish tartiblari tushuntirildi.

Shuningdek, ariq va kanallar, boshqa gidrotexnik inshootlarda taqiqlangan hududda o'zboshimchalik bilan cho'milayotgan bolalarni aniqlash va cho'kish bilan

bog'liq ko'ngilsiz holatlarning oldini olishga qaratilgan reydtadbirlari o'tkazildi. Voyaga yetmagan shaxslar bilan profilaktik suhbat o'tkazildi va cho'milish taqiqlangan joylarga maxsus "Cho'milish taqiqlanadi!" belgilari o'rnatildi, ko'rinarli joylarga yozib chiqildi.

**I. UMAROV,**  
Jizzax viloyati FVB axborot  
xizmati rahbari, kapitan.  
**O. AKROMOV,**  
Zarbdor tumani FV bo'limi  
boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

## KAMCHILIKLAR BARTARAF ETILADI

Joriy yilning 1-iyulidan 1-avgustga qadar tuman hududida "Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dolzarb 30 kun" tadbirlari o'tkazilmoqda. O'tkazilayotgan tadbirlar mobaynida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, xonadonlarda gaz va elektr ta'minotidan oqilona foydalanish, qo'lbola yasalgan gaz va elektr jihozlaridan foydalanmaslik, isitish pechlarini va yoqilg'ildan foydalanishda xavfsizlik va yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilish, mo'rillarni, tutun yo'llarini sozligini mutaxassislarga tekshirish, ko'p qavatli uylarda havo tortish yo'llariga ulanib olmas-

lik, yong'in xavfsizligi qoidalariga zid ravishda turli xil taqiqlangan, yengil va kuchli alanganuvchi, foydalanilgan maishiy gaz ballonlari ichidagi cho'kindi gaz kondensantini to'kib olib, yoqilg'i sifatida foydalanish, uni boshqa neft mahsulotlari bilan aralashirish holatlarining oldini olishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

**Q.UZAQOV,**  
Paxtaobod tumani FV bo'limi  
bo'linma boshlig'i, kapitan.  
**D.SOLIJOV,**  
bo'lim YON va PB inspektori,  
leytenant.

ning klapanlari mustahkam yopilishi kerak.

**S. MO'MINOV,**  
Buxoro viloyati FVB hokimiyat  
huzuridagi  
RQUDM OBYXTTEB boshlig'i,  
podpolkovnik.

**S.MURTAZOYEV,**  
RQUDM OBYXTTEB, kapitan.

## TILSIZ YOV

Yoz faslining issiq mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida, avvalo, yong'inlar bilan bog'liq vaziyatlarning oldini olish borasidagi ishlar yanada jadallashtirilmoqda. Chunki, yong'inni kelib chiqish sabablari tahlil qilinganda, aksariyat holatlar aholi yashash joylaridagi gaz, elektr isitish moslamalaridan foydalanishda texnika, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya etilmasligi oqibatida sodir bo'layotgani ma'lum bo'lmoqda.

Aholining yong'in xavfsizligi togrisidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish masalalariga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Yong'inlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot va aholi orasida tushuntirish ishlarini tashkillashtirishga FVV hamda boshqa vazirlik va idoralar hamda keng jamoatchilik safarbar etilmoqda. Barcha turkumdagi obyektlarda, ayniqsa, ko'p xonadonli uylar va yakka tartibdagi uy-joylar, bozor, yirik savdo majmualari va aholi ko'p to'planadigan boshqa obyektlarda keng qamrovli profilaktik-ogohlantirish tadbirlari kuchaytirilmoqda. Mahallalarda xonadonbay tartibida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlari yanada jadallashtirilmoqda.

**R. ISAYEV,**  
Toshkent shahar FVB OYXTTEB  
kichik inspektori, katta serjant.

## YONG'INLAR

Yong'in xavfsizligi xizmati xodimlarining asosiy vazifalari, avvalo, yong'inlarning oldini olish, aholi va tashkilotlarda keng ko'lamdagi targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish, shu orqali yong'inlar sonini kamaytirishdan iboratdir.

Aholi o'rtasida tashkil etilayotgan tadbirda yong'inning paydo bo'lish sabablari, o'chirish vositalarining ishlatilish tartibi, yong'in sodir bo'lganda dastlab nimalarga e'tibor qaratish zarurligi tushuntirilmoqda. Ta'kidlash joizki, yong'in kelib chiqqan holatlarda birlamchi kurashish vositasi o't o'chirgichlar hisoblanadi. Ular barcha xonalarda va transport vositalarida, binolarda o'rnatilishi kerak. Ularning suvli, ko'pikli, kukunli, karbonat angidridli va aeroxolli turlari mavjud bo'lib, qaysi o't o'chirgich qanday turdagi yong'inni o'chira olishini o't o'chiruvchi moddasiga qarab aniqlash mumkin. Qayd etish kerakki, bugungi kunda o't o'chiruvchilar duch kelayotgan muammolar, xususan, aholi turar-joylarida yo'laklarni to'sib olish, mashinalarni noto'g'ri joylashtirish, suv olish mumkin bo'lgan joylarni berkitib tashlash holatlarining oldini olish har birimizning vazifamizdir.

**M. MIRZAOLIMOV,**  
Toshkent shahar FVB OYXTTEB kichik  
inspektori, kichik serjant.

## DOLZARB MASALALAR

Sergeli tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan kunlik profilaktika ishlari tashkillashtirilgan bo'lib, ushbu ishlar natijasini, aniqlangan kamchiliklar borasida rahbarlar hamda shahar hokimliklariga axborotnoma va taqdimnomalar kiritib borilmoqda.

**F.RAHMONQULOVI,**  
Sergeli tumani FV bo'limi P va NB  
kichik inspektori, katta serjant.

Маърифат соати

# ДУНЁ ДИНЛАРИНИНГ ТАРИХИ ВА ИЖТИМОЙ ФУНКЦИЯЛАРИ

Маълумки, дин доимо башарият диққат марказида бўлган. Тарихнинг муайян босқичларида у мутлақ ҳукмрон куч бўлган бўлса, баъзи босқичларда инкор этилган. Жамиятдаги мавқеидан қатъий назар у доимо ўрганиш, тадқиқот объекти бўлиб келган. Глобаллашув натижасида рўй бераётган миллатлар, ирқлар, динлараро мулоқотнинг ўзига хос аҳамият касб этиши контекстида, динларни ўрганиш янада муҳим аҳамият касб этмоқда. Динларни ўрганиш узоқ тарихга эга. Ҳар бир инсон ён-атрофидагиларнинг эътиқоди, қайси динга мансублигига қизиқади, улар ҳақида билишни истади. Бу борадаги илк маълумотларни Қадимги Греция ва Рим ёзувчиларидаги асарларда ҳам кўришимиз мумкин. Улардан энг машҳури “тарих отаси” номини олган Геродот ўзи тадқиқ қилган халқларнинг динлари ҳақида маълумотлар келтирган.



Маълумки, дин доимо башарият диққат марказида бўлган. Тарихнинг муайян босқичларида у мутлақ ҳукмрон куч бўлган бўлса, баъзи босқичларда инкор этилган. Жамиятдаги мавқеидан қатъий назар у доимо ўрганиш, тадқиқот объекти бўлиб келган. Глобаллашув натижасида рўй бераётган миллатлар, ирқлар, динлараро мулоқотнинг ўзига хос аҳамият касб этиши контекстида, динларни ўрганиш янада муҳим аҳамият касб этмоқда. Динларни ўрганиш узоқ тарихга эга. Ҳар бир инсон ён-атрофидагиларнинг эътиқоди, қайси динга мансублигига қизиқади, улар ҳақида билишни истади. Бу борадаги илк маълумотларни Қадимги Греция ва Рим ёзувчиларининг асарларида кўришимиз мумкин. Улардан энг машҳури “тарих отаси” номини олган Геродот асарларида ўзи тадқиқ қилган халқларнинг динлари ҳақида маълумотлар келтирган.

Ўзбек тилидаги “дин” маъносини берувчи атамалар барча тилларда мавжуд. Жумладан, зардуштийларнинг манбаси “Авесто”да “дин” сифатида “daena”, қадимги форс паҳлавий тилида “den”, “din”, “dena”, “daena” сўзи ишлатилиб, “йўл”, “мазҳаб”, “маросим”, “услуг”, “тарз” каби маъноларни билдирган. Рус тилида дин маъносини англатадиган “религия” сўзининг келиб чиқиши борасида луғатларда бир қанча ёндашувлар келтириб ўтилган. Улардан баъзиларига кўра, мазкур атама латинча “religio” сўзидан келиб чиқиб, “диёнат, диндорлик, тақводорлик, ҳудожўйлик, мўминлик, тақво, муқаддас нарса ёки жой, қадамжо, зиёратгоҳ, ибодат— топиниш—сиғиниш ва у билан боғлиқ диний маросимлар” деган маъноларни англатади.

Азалдан она юртимизда ислом, насронийлик, буддавийлик каби динлар ёнма-ён яшаб келган. Асрлар давомида йирик шаҳарларда масжид, черков ва синагогаларнинг мавжуд бўлиши, турли миллат ҳамда динга мансуб қавмларнинг ўз диний амалларини эркин адо этиб келаётгани бунинг тасдиғидир. Миллий қадриятларнинг асрлар оша безавол яшаб келаётгани диннинг шарофатидандир. Диний эътиқодларнинг моҳияти умумий эканига қарамасдан, динларнинг кўриниши хилма-хилдир. Дунёда жуда содда, қадимий динлар билан бир қаторда, умумжаҳон аҳамиятга молик, мураккаб, жаҳон динлари ҳам мавжуд. Улар тарихий заруратга қараб, турли даврларда вужудга келган. Чунки дунёдаги динларнинг барчаси эзгулик ғоясига асосланади ва яхшилик, тинчлик, дўстлик каби хусусиятларга таянади. Одамларни ҳалоллик ва поклик, меҳр-шафқат, биродарлик ва бағрикенгликка даъват этади. Ватанимиздаги диний бағрикенгликни олиб қарайдиган бўлсак, бу ўлкага муқаддас Ислом дини кириб келмасдан аввал зардуштийлик, буддавийлик, монийлик, христианлик, маздакийлик, шомонийлик каби динлар мавжуд бўлган. Ҳозирги даврда динлараро бағрикенглик ғояси бутун жамият аъзоларининг эзгулик йўлидаги ҳамкорликни мустаҳкамлашнинг муҳим шarti ҳисобланади. Қолаверса, диний бағрикенглик ҳаммамизга аждодларимиздан қолган анъанадир. Ислом дини мусулмонларга бошқа самовий динларга, уларнинг пайғамбарларига, муқаддас китобларга имон келтиришни фарз қилиш билан бирга ўша динларга эътиқод қилувчи кишиларга ёмонлик қилмаслик, улар билан яхши муомалада бўлиш, яхши

қўшничилик қилишга ҳам ижозат берди.

Қатор олимларнинг фикрига кўра, дин бу ижтимоий ҳодиса, инсон тафаккури, эмоциялари маҳсулидир. Мазкур қараш тарафдорлари динлар соддадан – мураккабга, умумийликдан – хусусийликка, кўпхудоликдан – яккахудоликка томон узоқ тарихий эволюцион жараёни босиб ўтган деб ҳисоблашади. Рақамларга мурожаат қилсак, бугун энг кўп тарафдорларга эга динлар Ислом, Христианлик, Яҳудийлик, Буддавийлик, Ҳиндуизм саналади. 311 йилда христианлик дин сифатида расмий равишда тан олинди. Шу асрнинг охирида, император Константин даврида христианлик давлат муҳофазасини адо этувчи ва унга раҳнамолик қилувчи давлат динига айланди. 1054 йилда христианлик дини доирасида илк йирик бўлиниш рўй бериб, православ (Шарқий христианлик) ва католик (Ғарбий христианлик) церковлари юзага келди. Православлик тарихан христианликнинг шарқий йўналиши сифатида шаклланди. Ислом дини VII асрда Ғарбий Арабистонда пайдо бўлган. Ислом динининг пайдо бўлиши хусусида Ислом манбаларига асосланган диний анъанада у илоҳий ҳодиса, инсонларни тўғри йўлга солиш учун Аллоҳ томонидан юборилган охириги таълимот деб ҳисобланади. Яҳудийлик дунёдаги энг қадимий миллий динлардан бири бўлиб, тахминан миллоддан аввалги иккинчи минг йилликда Мисрда пайдо бўлган.

Ҳиндуийлик атамаси “Ҳинд дарёси атрофида яшовчи” маъносини билдирувчи форс сўзидан келиб чиққан бўлиб, Ғарб олимлари минтақа халқининг динини ифодалаш учун уни ишлатганлар. Ҳиндлар эса ўз динларини “Санатана Дхарма” – азалий-абдий дин, дея номлайдилар. Мазкур дин, асосан, Ҳиндистонда тарқалган. Ҳиндуийликда тотемистик унсурлар ёрқин намоен бўлиб, сигир, маймун, илон каби ҳайвонларнинг илоҳийлаштирилишида акс этади. Ҳиндуийликнинг ақидавий, маросимий ва рамзий соҳалардаги жуда ҳам мураккаб тизими унга эътиқод қилувчиларнинг турлича талқинида яна ҳам мураккаблашиб кетади. Буддавийлик бугунги кунда эътиқод қилувчилар сонига кўра, христианлик, ислом динидан кейинги ўринда турадиган жаҳон динларидан бири ҳисобланади. Буддавийлик миллоддан аввалги VI–V асрларда Шимолий Ҳиндистонда вужудга келган. Миллоднинг биринчи асрларида буддавийлик бутунлай бошқача тус олади. Буддавий донишмандлар фикрича, ҳар бир инсон жуда кўп эзгу ва яхши ишлар қилиш орқали Буддага айланиши мумкин.

Юқорида дунё халқлари орасида энг кенг тарқалган динларнинг келиб чиқиш тарихига оид бўлган маълумотларни жамладик. Таъкидлаш лозимки, ушбу динларнинг туб моҳиятида эзгулик ва инсонийлик ғоялари улуғланади. Шундай экан, динимиз, миллатимиз, ирқимиздан қатъий назар эзгу қадриятларни, инсонийликни унутмайлик. Юртимизга Ислом дини кириб келгунга қадар, аждодларимиз турли динларга топинганлар. Юртимиз ҳудудидаги аҳоли турли даврларда тангричилик, монийлик, маздакийлик, зардуштийлик каби динларга эътиқод қилишган. Тарихий манбаларда қайд этилишича, Юнон-Бақтрия, Салавкилар, Кушон давлатлари ҳудудида буддавийлик кенг тараққий этган. Хусусан, Кушон шоҳи Канишка ҳукмрониги даврида буддавийлик ягона давлат дини даражасига кўтарилди. Буни археологик тадқиқотларнинг натижалари ҳам кўрсатиб турибди.

Бир пайтлар мамлакатимиз жанубида буддавийлик дини кенг қулоч ёйгани, бу ҳудуддан топилган осори атиқалар, ибодатхона қолдиқларида ҳам ўз аксини топади. Сурхондарё ҳудудида олиб борилган археологик изланишлар натижасида Қоратепа, Далварзинтепа, Ажинеттепа, Холчаён, Зурмала сингари ҳудудлардан буддавийликка оид ибодатхона қолдиқлари, ибодат ашёлари ва ҳайкаллар намуналари топилган. XV аср бошларида Амир Темур саройида бўлган Кастилия элчиси: “Соҳибқирон Темур Самарқандда турли дин вакилларини йиғади, уларга илтифот кўрсатади ҳамда насронийликка эътиқод қилувчи меҳмонларнинг турли эҳтиёжларини бажариш учун алоҳида масъул шахс тайинлайди. Улар билан дўстона алоқаларни мустаҳкамлашни тامينлайди”, – деб таърифлаган. Айни пайтда Ўзбекистонда истиқомат қилаётган барча дин вакилларининг виждон ва диний эркинликлари белгилаб қўйилган. Барча динлар таълимотининг негизида эзгулик, чиройли амал ва яхшилик улашиш ётади шу билан бирга бағрикенглик масалаларига катта аҳамият қаратилган. Бу масала, айниқса, ислом динида бошқа дин вакилларига муносабат ва бағрикенглик асосларига катта эътибор қаратилган.


Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, барча динлар, илоҳий кўрсатмалар инсониятни фақат маърифат, эзгулик ва яхшиликка чақириб келган. Яхши ишларни бажаришда ўзаро ҳамкорликка ундаган ҳамда жаҳолат, разолат ва қабохат ишлардан қайтарган. Динлар таълимоти бағрикенгликка, чиройли хулқ-одобга, сабр-бардошлиликка чақириб, инсонларни доимо шукрона келтириб ҳаёт кечиришга даъват этиб келган. Шунингдек, бу эзгу ғоя ва амаллар бугунги кунда давлатимизда асосий эътибор қаратилган соҳага айланган.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

# ЭЪТИБОР ВА ЭЪТИРОФ

27 июнь – Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси масъуллари ФВВ муассислигидаги “Vaziyat” газетаси – “Муҳофазат+” журнали бирлашган тахририятига ташриф буюришди ҳамда тахририят ходимларини байрам билан кутлашди.

Бугун ҳаётимизни оммавий ахборот воситаларисиз тасаввур эта олмаймиз, – деди табрик давомида меҳмонлар. Таъкидланганидек, шиддаткор давр, замон тараққиёти ОАВга ҳаётимизнинг ажралмас қисми сифатида қарашни тақозо этмоқда. Барча ахборот узатиш тармоқлари, газеталар, телерадиокомпания, радио, интернет нашрлари, мустақил блогерлар тезкор янгиликлар тарқатишда фаол иштирок этдилар. Уларнинг ўз ҳаловатидан кечиб, фаолият юритгани эътиборга лойиқ. Жамиятимиздаги муаммо ва камчиликлар журналистларнинг ўткир қалами сабаб ўз ечимини топапти. Мана шундай самарали ишларда ФВВ Бирлашган тахририяти ходимлари ҳам ўзларининг муносиб ҳиссаларини қўшишмоқда.



Шунингдек, ушбу тадбир давомида “Vaziyat” газетасининг ахборот етказишдаги фаоллиги, уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш борасида олиб борилган ишлар ҳақида сўз юритилди. Журналист нафақат оммага тезкор ахборот етказиши, балки унинг холислигига ҳам масъулият билан ёндашиши лозимлиги айтилди. Бугунги эътироф ва эътибор, журналистларни янада куч-ғайрат билан ишлашга, халқимизни қийнаётган жамиятимиздаги муаммоларга қарши курашга ва уларга ечим топишга кўмак бериши таъкидланди.

Тадбир сўнгида Ҳарбий прокуратура органларининг ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, Қуроли Кучлар ҳарбий хизматчилари ва ходимларининг ҳуқуқий маданиятини янада юксалтириш, уларга ҳуқуқий ахборотни тезкор етказиш, ҳарбий оилалар ижтимоий ҳимоясини таъминлаш борасидаги фаолиятини ёритишдаги фаол иштироки учун ФВВ Бирлашган тахририяти бош муҳаррир ўринбосари Анвар Қобилов Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурининг фахрий ёрлиғи билан тақдирланди. Шубҳасиз, бундай эътироф ҳамда эътибор тахририят ижодий жамоасини руҳлантирди.

**ФВВ Бирлашган тахририяти  
ижодий жамоаси.**



## Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқуллода**  
**вазирлар**  
**вазирлиги**

Бош муҳаррир в.б.  
**Азамат СУЙОНОВ**

Газета тахририят  
компьютерхонасида  
сахифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

Навбатчи:  
**А.ҚОБИЛОВ**

Тахририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри тахририят  
нуқтаи назаридан фарқланиши  
мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган  
**ISSN 2091-5292**

**Тахририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.  
**Тел.:** (71) 231-96-71  
**Телеграмм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташқиротлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади – 6000 нусха

## ОФТОБ УРИШИДАН САҚЛАНИНГ!

Мана, ёз фаслининг иссиқ кунлари ҳам бошланди. Табиийки, кўпчилик бундай ҳолатларда бош кийимсиз юради ёки чиниқиш мақсадида ўзини офтоб нурида тоблашди. Очiq танали ва бошланг одамга кўёш нурининг тик тушиши оқибатида бадани ҳаддан ортиқ қизиби кетиши кузатилади. Бундай ҳолат иссиқ жойларда ишлаш, узоқ вақт мобайнида ҳаво ўтказмайдиган кийим кийиб юриш натижасида ҳам рўй беради. Бир сўз билан айтганда, офтоб уриши ёки иссиқ элитизи-ташқи муҳитнинг юқори ҳарорати таъсирида организмда сувлар, минерал тузлар алмашинуви мутаносиблигининг бузилишидир.

### ТЕРМОРЕГУЛЯЦИЯ

Одатда инсон танасида жисмоний ҳаракат натижасида иссиқлик ҳосил бўлиб, ўртача оғирликдаги меҳнат билан шуғулланганда 300 ккал соат, оғир меҳнат билан шуғулланганда эса 600 ккал соат ва ундан кўпроқ энергия ишлаб чиқаради. Соғлом одам организми ўзгариб турадиган ташқи муҳит ҳароратига яхши мослашади. Чунки организм тана ҳароратини бир маромда тургун сақлаши, асосан терлаш ҳисобидан танадаги сувнинг буғланиши натижасида танани совитиш хусусияти орқали амалга оширади. Ҳаддан ташқари терлаш оқибатида инсон танасидан бир кун мобайнида 10 литргача сув йўқолиши мумкин. Бу илмий, тиббий тилда терморегуляция, яъни танадаги ҳароратни бошқариш дейилади. Тананинг ҳаддан ташқари қизиби кетиши ва терлаши оқибатида организм бироз сувсизланади ва 2 соат мобайнида организмдан 10 грамм натрий хлорид тузи чиқиб кетади. Офтоб уришига олиб келувчи омиллар вақтида овқатланмаслик, танада ҳосил бўлган чанқоқлик ҳиссини вақтида қондирмаслик натижасида қон қуюқлашади, минерал тузларнинг одатдаги мутаносибли ўзгаради, одамни офтоб уради, иссиқ элитади ва марказий асаб тизимининг турли бўлимлари фаолияти бузилиши-

га олиб келади. Буни тўқималар, айниқса, бош мияга ҳаво етишмаслиги, яъни кислород танқислиги сабабли одамнинг тез-тез хомуш тортиши ва бошқа аломатлардан ҳам билса бўлади.

### ДАСТЛАБКИ БЕЛГИЛАР

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, куннинг иссиқ вақтларида одамларнинг иссиқлик ҳарорати 37°C дан юқори бўлган жойларда ишлаши ва машқлар билан шуғулланиши, узоқ вақт мобайнида ҳаво ўтказмайдиган, фаслга номуносиб кийим кийиб юриши натижасида танада терморегуляция жараёни яхши ривожланмай қолади. Нам ҳавода терлаш фаолияти бузилади, терморегуляция тобора қийинлашади. Бунинг натижасида офтоб урган, иссиқ элитган одамда оғиз қуриш, лоҳаслик каби бирламчи белгилар пайдо бўлиб, боши оғрийд ва айланади, қулоқлари шанғиллайди, қорин мушаклари тиришиб-тортишади, тана ҳарорати 38-40°C даражагача кўтарилди. Оғир ҳолатларда кўнгил айнийд ва қайт қилади. Баъзан алаҳлаб, ҳушидан кетади. Бундай ҳолатларда кўз қорачиқлари кенгайди, нафас олиши тезлашади, томир уришининг сони бир дақиқада 140-160 тагача (меъёр 70-72 марта) етиши мумкин.

### НИМА ҚИЛИШ КЕРАК?

Биринчи тез тиббий ёрдам кўрсатиш учун беморни малакали тиббий ходим етиб келгунча соя-салқин жойга олиб ўтиш, тор кийим-бошларининг ёқа-енгларини бўшатиш, тугмаларини ечиш, бошини баландироқ кўтариб ўтқириш, орқаси билан суянчиққа суяб ётқириш шарт. Шундан кейин бошига, айниқса, йирик қон-томирлари ўтадиган соҳа, яъни бўйиннинг икки ёни, қўлтиғи ва чов соҳасига музли халтача, совуқ сув солинган шиша ёки бир марта ишлатиладиган елимсимон идиш қўйиш зарур. Шунингдек, беморнинг устига ҳўлланган сочиқ ёйиш ёки ҳўлланган

чойшаб билан уни ўраш керак. Натижада матодаги сув буғланиб, тана ҳарорати бирмунча пасаяди. Пиёз суви ёки новшадил спиртини ҳидлатиш, елпиш, кўпроқ суюқлик ичириш ва бошқа шошилишч муолажалар қилиш лозим.

Шуни унутмаслик зарурки, қизиган ва қизарган терига спирт ёки ароқ суртиш асло мумкин эмас. Чунки теридаги майда тешикчаларнинг оғзи беркилиб қолишига, тери юзасининг куйишига олиб келади ва танадаги иссиқликнинг ташқарига чиқишига тўсқинлик қилади. Натижада организм қаттиқ қизиби, “димланади”, нафас олиш жараёни қийинлашади, ҳатто юрак фаолияти тўсатдан бузилиб, тўхтаб қолиши ҳам мумкин. Юрак ва қон-томирларидаги ўзгаришлар жароҳат олган заҳоти бир неча дақиқа ўтгач намоён бўлишини асло унутманг.

Шундай ҳолатларда заруратга қараб, беморга сунъий нафас олдириш, юрагини тўғридан-тўғри уқалаш (массаж) усулларини қўллаш учун ҳар ким ўзини руҳан, маънан ва жисмонан тайёрлаши шарт. Агарда беморда сув ичишдан воз кечиш, тез-тез қайт қилиш, шунингдек, ҳолдан тойиб эс-хушини йўқотиш каби кескин ўзгариш ҳолатлари кузатилса, сиз учун энг яхши йўл бу, тез тиббий ёрдам кўрсатиш хизматида зудлик билан мурожаат қилишингиздир.

Хуллас, офтоб урган ёки иссиқ элитган одамнинг умумий аҳолини диққат билан кузатиш, асло лоқайд бўлмаслик, шошилишч, зарур тиббий ёрдам кўрсатиш беморнинг бош мия ва бошқа аъзолари меъёрий фаолиятининг бузилмаслигига олиб келади. Қолаверса, энг аввало, очiq жойда ишлаганда, дала машқлари ва ички хизматни ўташ ҳамда кенг дала, тоғ, дарё, кўл бўйига борганида енгил, ҳавони яхши ўтказадиган кийим кийиш, бошни офтобдан сақлаш лозим бўлади.

**О.ШОМИРЗАЕВ,  
Сирдарё вилояти ФВБ ҲФХҲМ  
ўқитувчиси.**